



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar-avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi-

2602,2 mlrd.so'm

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi -

15,3 %

Kichik korxona va
mikrofirmalar ulushi -

63,4 %

Norasmiy sektor
ulushi- **21,3 %**

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatida jami **2602,2** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,8 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 398,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,3 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,4 %i yoki 1650,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 21,3 % yoki 552,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,9 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **398,9 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **125,3 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar


hajmi - **1650,7 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **135,0 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **552,6 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **92,9 %**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,8 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 25,4 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,8 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.



Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▢ Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▢ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 %ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 69,0 % (7,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 30,9 %ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 55,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi). Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 45,0 % (7,1 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,9 % punktga kamaydi va 19,6 %ni tashkil etdi.

Qolgan 80,4 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,9 % punktga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

| | <i>Jami</i> | <i>shu jumladan:</i> | | |
|-----------------------------|-------------------|-------------------------------|-------------------|----------------------------|
| | | <i>hududiy yirik qurilish</i> | | |
| | | <i>tashkilotlari</i> | | |
| | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, %da</i> |
| Surxondaryo viloyati | 2602,2 | 121,8 | 398,9 | 125,3 |
| Termiz sh. | 780,4 | 130,5 | 19,2 | 65,8 |
| tumanlar: | | | | |
| Oltinsoy | 47,6 | 117,1 | - | - |
| Angor | 104,1 | 111,0 | - | - |
| Boysun | 169,0 | 124,2 | - | - |
| Denov | 173,2 | 112,1 | - | - |
| Jarqurg'on | 156,4 | 105,8 | 0,9 | - |
| Qiziriq | 98,6 | 110,5 | 8,9 | 260,1 |
| Qumqurg'on | 114,6 | 108,7 | 29,4 | 137,1 |
| Muzrabot | 82,4 | 123,6 | - | - |
| Sariosiyo | 447,5 | 125,7 | 305,8 | 129,1 |
| Termiz | 151,3 | 117,7 | 2,7 | 528,3 |
| Uzun | 86,7 | 117,5 | 7,4 | - |
| Sherobod | 124,8 | 138,0 | 24,6 | 91,8 |
| Sho'rchi | 65,6 | 118,1 | - | - |

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxona va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor


Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1650,7 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,4 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,0 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 398,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 15,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,3 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,3 % yoki 552,6 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,9 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida tumandagi qurilish hajmining 75,2 %, Termiz tumanida 74,9 %, Boysun tumanida 70,7 % hamda Termiz shaxrida 89,4 %ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 49,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,9 %ni tashkil qildi.


Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2553,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,1 %ni tashkil qildi.




Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur`ati 125,7 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 68,4 %ini tashkil qiladi.



Yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 30,0 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyoy tumaniga 17,2 %, Denov tumaniga 6,7 % va Boysun tumaniga 6,5 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15
(71)230-85-81**